

<p>«УТВЕРЖДЕНО» решением единственного акционера АКБ «ТиБиСи Банк» от «10» июля 2020 года № 45</p> <p><i>Вахтанг Буцхрикидзе</i> От имени единственного акционера</p>	<p>“TBC Bank” ATB yagona aksiyadorining 2020-yil 10- iyuldagi 45-son qarori bilan TASDIQLANGAN</p> <p><i>Vaxtang Butsxrikidze</i> Yagona aksiyador nomidan</p>
<p>ПОЛОЖЕНИЕ О РЕВИЗИОННОЙ КОМИССИИ АКЦИОНЕРНОГО КОММЕРЧЕСКОГО БАНКА «ТиБиСи Банк»</p>	<p>“TBC Bank” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKNING TAFTISH KOMISSIYASI TO’G’RISIDA NIZOM</p>
<p>ОГЛАВЛЕНИЕ</p>	<p>MUNDARIJA</p>
<p>I. Общие положения</p>	<p>I. Umumiy qoidalar</p>
<p>II. Функции и обязанности ревизионной комиссии</p>	<p>II. Taftish komissiyasining vazifalari va majburiyatlari</p>
<p>III. Права и полномочия ревизионной комиссии</p>	<p>III. Taftish komissiyasining huquq va vakolatlari</p>
<p>IV. Порядок проведения проверок (ревизий)</p>	<p>IV. Tekshirishlarni (taftishlarni) o’tkazish tartibi</p>
<p>V. Избрание и досрочное прекращение полномочий членов ревизионной комиссии</p>	<p>V. Taftish komissiyasi a’zolarini saylash va vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish</p>
<p>VI. Заседания ревизионной комиссии</p>	<p>VI. Taftish komissiyasi majlislari</p>
<p>1. ОБЩИЕ ПОЛОЖЕНИЯ</p>	<p>1. UMUMIY QOIDALAR</p>
<p>1.1. Настоящее положение определяет статус и регламентирует работу ревизионной комиссии акционерного коммерческого банка «ТиБиСи Банк» (далее –Банк), порядок ее избрания, а также функциональные обязанности и полномочия.</p>	<p>1.1. Mazkur Nizom "TBC Bank" aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o'rinlarda "Bank" deb yuritiladi) taftish komissiyasining maqomini belgilaydi va faoliyatini, uni saylash tartibini, shuningdek funktsional majburiyatlari va vakolatlarini tartibga soladi.</p>
<p>1.2. Положение разработано в соответствии с Законами Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав</p>	<p>1.2. Nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Banklar va</p>

<p>акционеров», «О банках и банковской деятельности», «О Центральном банке Республики Узбекистан» и иными нормативно-правовыми актами Республики Узбекистан и уставом Банка.</p>	<p>bank faoliyati to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonunlariga va O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlariga va Bank ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.</p>
<p>1.3. Ревизионная комиссия является органом Банка, осуществляющим функции внутреннего финансово – хозяйственного и правового контроля за деятельностью банка, его подразделений и служб, филиалов и представительств.</p>	<p>1.3. Taftish komissiyasi bank, uning bo'linmalari va xizmatlari, filiallari va vakolatxonolari faoliyati ustidan ichki moliya-xo'jalik va huquqiy nazorat funktsiyalarini amalga oshiradigan Bank organidir.</p>
<p>1.4. В своей деятельности ревизионная комиссия руководствуется законодательством Республики Узбекистан, подзаконными актами органов государственного управления, уставом банка, настоящим положением и другими документами банка.</p>	<p>1.4. Taftish komissiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, davlat boshqaruvi organlarining qonunosti hujjatlariga, bank ustaviga, mazkur nizomga va bankning boshqa hujjatlariga amal qiladi.</p>
<p>2. ФУНКЦИИ И ОБЯЗАННОСТИ РЕВИЗИОННОЙ КОМИССИИ</p>	<p>2. TAFTISH KOMISSIYASINING VAZIFALARI VA MAJBURIYATLARI</p>
<p>2.1. Проверка (ревизия) финансово – хозяйственной деятельности Банка осуществляется по итогам деятельности за год или иной период по инициативе ревизионной комиссии, Общего собрания акционеров, Совета Банка или по требованию акционера (акционеров), владеющего в совокупности не менее чем 5% голосующих акций банка путем предварительного уведомления Совета Банка.</p>	<p>2.1. Bank moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) Taftish komissiyasining, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, Bank Kengashining tashabbusiga ko'ra yoki Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra Bank Kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi.</p>
<p>2.2. При выполнении своих функций ревизионная комиссия осуществляет следующие виды работ:</p> <ul style="list-style-type: none"> а) проверку финансовой документации банка, заключение комиссии по инвентаризации имущества, сравнение указанных документов с данными первичного бухгалтерского учета; б) проверку законности заключенных договоров от имени банка, совершаемых сделок, расчетов с контрагентами; в) анализ соответствия ведения бухгалтерского и статистического учета действующим нормативным документам; 	<p>2.2. O'z vazifalarini bajarish chog'ida taftish komissiyasi quyidagi ish turlarini amalga oshiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> а) bankning moliyaviy hujjatlarini tekshiradi, mulkni inventarizatsiya qilish bo'yicha komissiya xulosasini tuzadi, mazkur hujjatlarni birlamchi buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari bilan solishtiradi; б) Bank nomidan tuzilgan shartnomalar, amalga oshirilayotgan bitimlar va kontragentlar bilan hisob-kitoblarning qonuniyligini tekshiradi; в) buxgalteriya va statistik hisob-kitoblarni olib borilishining amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini tahlil qiladi;

<p>г) анализ финансового положения банка, его платежеспособности, ликвидности активов, соотношения собственных и заемных средств, выявление резервов улучшения экономического состояния банка и выработку рекомендаций для органов управления банка по вопросам их финансово – хозяйственной деятельности;</p> <p>д) проверку своевременности и правильности платежей поставщиками продукции и услуг, платежей в бюджет, начислений и выплат заработной платы и дивидендов, процентов по облигациям, погашений прочих обязательств;</p> <p>е) проверку правильности составления балансов банка, годового отчета, счета прибылей и убытков, распределения прибыли, отчетной документации для налоговой инспекции, статистических органов, органов государственного управления;</p> <p>ж) проверку соблюдения обществом требований законодательных и нормативных актов о ценных бумагах и акционерных обществах, в том числе о наличии сделок с аффилированными лицами или крупных сделок банка;</p> <p>з) иные виды работ, в том числе по поручению общего собрания акционеров и совета банка, отнесенные уставом банка к компетенции ревизионной комиссии.</p>	<p>д) Bankning moliyaviy holatini, uning to'lovga layoqatligini, aktivlarning likvidligini, o'zining mablag'lari va qarz mablag'larining nisbatini tahlil qiladi, bank iqtisodiy ahvolini yaxshilash zaxiralarini aniqlaydi hamda bank boshqaruv organlari uchun ularning moliya-xo'jalik faoliyati masalalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;</p> <p>е) mahsulot va xizmatlarni etkazib beruvchilarga, byudjetga to'lovlar, ish haqi va dividendlarni, obligatsiyalar bo'yicha foizlarni hisoblash va to'lash, boshqa majburiyatlar so'ndirilishining o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirilayotganini tekshiradi;</p> <p>f) bank balanslarining, yillik hisobotlarning, foydalar va zararlar hisobvaraqlarining, foyda taqsimlanishining, soliq inspeksiyasiga, statistika idoralariga, davlat boshqaruvi organlariga yuboriladigan hisobot hujjatlarining to'g'ri tuzilganligini tekshiradi;</p> <p>g) bank tomonidan qimmatli qog'ozlar va aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilinishini, shu jumladan affillangan shaxslar bilan bitimlarning yoki bankning yirik bitimlarining mavjudligini tekshiradi;</p> <p>h) Bank Ustavi taftish komissiyasi vakolatiga kiritgan, shu jumladan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bank Boshqaruvi topshirig'i asosida ishlarning boshqa turlarini bajaradi.</p>
<p>2.3. Ревизионная комиссия обязана:</p> <p>а) своевременно доводить до сведения Общего собрания акционеров, Совета Банка, правления банка результаты осуществленных ревизий и проверок в форме заключения, письменных отчетов, докладных записок, сообщений на заседаниях органов управления банка;</p> <p>б) давать оценку достоверности данных, включаемых в годовой отчет банка и содержащихся в годовой бухгалтерской отчетности банка;</p> <p>в) давать оценку уязвимости банка перед рисками или другими обстоятельствами,</p>	<p>2.3. Taftish komissiyasi quyidagilarni bajarishi shart:</p> <p>а) amalga oshirilgan tekshirishlar va taftishlar natijalarini o'z vaqtida Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Bank Kengashi, Bank Bo shqaruviga xulosalar, yozma hisobotlar, bildirishnomalar, Bank boshqaruv organlari majlislarida ma'lumotlar tarzida etkazish;</p> <p>b) bankning yillik hisobotiga kiritilgan ma'lumotlar hamda bankning yillik buxgalteriya hisobotida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga baho berish;</p> <p>c) bankning xatarlar oldidagi zaifligi va uning</p>

<p>способными повлиять на ее финансовое положение;</p> <p>г) осуществлять ревизию финансово – хозяйственной деятельности банка по итогам ее деятельности за год, а также в любое время по инициативе лиц в соответствии с законодательством, уставом банка и настоящим положением;</p> <p>д) соблюдать коммерческую тайну, не разглашать сведения, являющиеся конфиденциальными, к которым члены ревизионной комиссии имеют доступ при выполнении своих функций. Если к работе ревизионной комиссии привлекаются в качестве экспертов лица, не являющиеся членами ревизионной комиссии, они должны быть предупреждены о соблюдении коммерческой тайны. Ответственность за их действия возлагается на членов ревизионной комиссии, привлекающих их к участию в ревизии;</p> <p>е) своевременно рассматривать жалобы акционеров на действия органов управления;</p> <p>ж) и должностных лиц банка и принимать по ним соответствующие решения;</p> <p>з) требовать созыва заседаний Совета Банка, созыва внеочередного Общего собрания акционеров в случаях, когда выявленные нарушения в производственно – хозяйственной, финансовой, правовой деятельности или возникновение реальной угрозы интересам Банка требуют решения их органами управления банка.</p>	<p>moliyaviy ahvoliga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa shart-sharoitlar yuzasidan baho berish;</p> <p>d) bankning bir yillik faoliyati natijalari bo'yicha, shuningdek shaxslarning tashabbusi bilan istalgan vaqtda qonunchilik, Bank ustavi va mazkur Nizomga muvofiq bankning moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilish;</p> <p>e) tijorat sirlarini saqlash, taftish komissiyasi a'zolari o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan ularga ma'lum bo'lgan maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik. Agar taftish komissiyasi tarkibiga kirmaydigan shaxslar taftish komissiyasi ishiga ekspert sifatida jalb qilinadigan bo'lsa, ular tijorat sirlarini saqlash to'g'risida ogohlantirilishi kerak. Ularning xatti-harakatlari uchun javobgarlik ularni tekshirishga jalb qiladigan taftish komissiyasi a'zolariga yuklatiladi;</p> <p>f) aksiyadorlarning boshqaruv organlari;</p> <p>g) va bank mansabdor shaxlari xatti-harakatlari ustidan shikoyatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish va ular bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish;</p> <p>h) ishlab chiqarish-xo'jalik, moliya, huquqiy faoliyat sohasida aniqlangan tartib buzilishlar yoki Bank manfaatlariga haqiqiy xavf yuzaga kelishi ularni bank boshqaruv organlari tomonidan hal etilishi zarur bo'lgan hollarda Bank Kengashining majlislari chaqirishini, Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi chaqirilishini talab qilish.</p>
<p>2.4. При проведении проверок члены ревизионной комиссии обязаны тщательным образом изучить все документы и материалы, относящиеся к предмету проверки. За неверные заключения члены ревизионной комиссии несут ответственность, мера которой определяется Общим собранием акционеров и действующим законодательством Республики Узбекистан.</p>	<p>2.4. Tekshirishlarni o'tkazish chog'ida taftish komissiyasi a'zolari tekshiruv predmetiga oid barcha hujjatlar va materiallarni sinchiklab o'rganishlari shart. Noto'g'ri xulosalar uchun taftish komissiyasining a'zolari javob beradilar, javobgarlik darajasi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilanadi.</p>
<p>2.5. Члены ревизионной комиссии обязаны присутствовать на Общем собрании акционеров и отвечать на вопросы участников собрания в</p>	<p>2.5. Taftish komissiyasi a'zolari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishlari va yig'ilish qatnashchilarining savollariga o'z vakolatlari</p>

пределах компетенции.	doirasida javob berishlari shart.
<p>3. ПРАВА И ПОЛНОМОЧИЯ РЕВИЗИОННОЙ КОМИССИИ</p>	<p>3. TAFTISH KOMISSIYASINING HUQUQ VA VAKOLATLARI</p>
<p>3.1. Ревизионная комиссия в целях надлежащего выполнения своих функций имеет право:</p> <ul style="list-style-type: none"> • проверять любую финансовую документацию банка, включая документы комиссии по инвентаризации Банка, сравнивать указанные документы с данными первичного бухгалтерского учета; • требовать и получать от органов управления Банка, его подразделений и служб, должностных лиц необходимых для осуществления своей деятельности документов. Указанные документы и материалы предоставляются в ревизионную комиссию в течение двух дней после ее запроса; • требовать созыва (единогласным решением) Общего собрания акционеров в случаях, когда выявляются нарушения в производственно-хозяйственной, финансовой, правовой деятельности или есть иная угроза интересам банка; • требовать созыва заседания совета банка. Председатель совета банка не вправе отказать ревизионной комиссии в созыве заседания совета банка по ее требованию; • присутствовать на заседаниях совета банка по приглашению любого из его членов; • ставить перед управляющими органами банка, его подразделениями и службами вопрос об ответственности работников банка включая должностных лиц, в случае нарушений ими положений, правил и инструкций, принимаемых Банком обществом. • участвовать в работе рабочей группы по организации перехода Банка к публикации финансовой отчетности в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности; • получать вознаграждение и (или) 	<p>3.1. O'z vazifalarini tegishli tarzda bajarish maqsadida taftish komissiyasi quyidagi huquqlarga ega:</p> <ul style="list-style-type: none"> • bankning istalgan moliyaviy hujjatlarini, shu jumladan Bank inventarizatsiya komissiyasi hujjatlarini tekshirish, ushbu hujjatlarni birlamchi buxgalteriya ma'lumotlari bilan solishtirish; • Bank boshqaruv organlaridan, uning bo'linmalari va xizmatlaridan, mansabdor shaxslaridan o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur hujjatlarni talab qilish va olish. So'ralgan hujjatlar va materiallar taftish komissiyasiga so'rovnomaga berilganidan keyin ikki kun ichida taqdim etilishi shart; • ishlab chiqarish-xo'jalik, moliya, huquqiy faoliyatda qoidabuzarliklar aniqlangan yoki bank manfaatlariga boshqa xavf vujudga kelgan holda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi chaqirilishni (bir ovozdan qabul qilingan qaror asosida) talab qilish; • bank kengashi majlisi chaqirilishini talab qilish. Bank Kengashi raisi Taftish komissiyasining talabiga asosan Bank Kengashi majlisi chaqirilishini rad etishga haqli emas; • Bank Kengashining majlislarida uning istalgan a'zosining taklifi asosida ishtirok etish; • bank xodimlari, shu jumladan mansabdor shaxslar tomonidan Bank tomonidan qabul qilingan nizomlar, qoidalar va yo'riqnomalarning buzilishi hollari aniqlanganda, ularning javobgarligi masalasini Bankning boshqaruv organlari, uning bo'linmalari va xizmatlari oldiga qo'yish; • Bankning moliyaviy hisobotlarni Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq nashr etishga o'tishini tashkil etish bo'yicha ishchi guruh ishida qatnashish; • qonun hujjatlarida va bankning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda taftish komissiyada ishlaganligi uchun haq va (yoki) xarajatlar uchun

<p>компенсацию расходов за работу в ревизионном комиссии в порядке, установленном законодательством и внутренними документами банка;</p> <ul style="list-style-type: none"> • иные права в соответствии с законодательством и уставом Банка. 	<p>kompensatsiya olish;</p> <ul style="list-style-type: none"> • qonunchilik hujjatlari va Bank ustaviga muvofiq boshqa huquqlar.
<p>3.2. Член ревизионной комиссии вправе:</p> <ul style="list-style-type: none"> • требовать созыва экстренного заседания комиссии в случае выявления нарушений, требующих безотлагательного решения ревизионной комиссии; • в письменном виде выразить свое несогласие с выводами ревизионной комиссии и довести его до сведения общего собрания акционеров банка. 	<p>3.2. Taftish komissiyasi a'zosi quyidagi huquqlarga ega:</p> <ul style="list-style-type: none"> • taftish komissiyasi tomonidan kechiktirmasdan qaror qabul qilishni talab qiladigan tartib buzilishlari aniqlangan holda komissiyaning shoshilinch majlisi chaqirilishini talab qilish; • taftish komissiyasi xulosalariga nisbatan o'z noroziligini yozma ravishda bildirish va uni bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi e'tiboriga etkazish.
<p>3.3. За участие в проверке (ревизии) финансово-хозяйственной деятельности Банка члену Ревизионной комиссии выплачивается единовременное вознаграждение. Выплата вознаграждения производится после решения Общего собрания акционеров по результатам проведенной проверки (ревизии).</p>	<p>3.3. Bankning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishda (taftishda) qatnashgani uchun Taftish komissiyasi a'zosiga bir martalik haq to'lanadi. Haqni to'lash tekshirish (taftish) natijalariga ko'ra Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroridan keyin amalga oshiriladi.</p>
<p>3.4. Порядок и сроки выплаты дополнительного вознаграждения определяются внутренними документами банка.</p>	<p>3.4. Qo'shimcha haq to'lash tartibi va muddati bankning ichki hujjatlari bilan belgilanadi.</p>
<p>4. ПОРЯДОК ПРОВЕДЕНИЯ ПРОВЕРОК (РЕВИЗИЙ)</p>	<p>4. TEKSHIRISHLAR (TAFTISHLAR) O'TKAZISH TARTIBI</p>
<p>4.1. Проверка (ревизия) финансово – хозяйственной деятельности Банка осуществляется по итогам деятельности банка за год.</p>	<p>4.1. Bank moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish) bankning bir yillik faoliyati natijalari yuzasidan o'tkaziladi.</p>
<p>4.2. Ревизионная комиссия представляет в Совет Банка отчет со своими выводами по результатам проверки (ревизии) финансово-хозяйственной деятельности банка за год и заключение, подтверждающее или опровергающее достоверность данных, включаемых в годовой отчет банка и содержащихся в годовом бухгалтерском балансе, не позднее, чем за 3 дня до даты проведения заседания Совета Банка, на котором рассматривается отчет о</p>	<p>4.2. Taftish komissiyasi Bank Kengashiga bankning bir yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish) natijalari bo'yicha o'z xulosalari bayon etilgan hisobotni hamda bankning yillik hisobotiga kiritiladigan va yillik buxgalteiya balansida berilgan ma'lumotlarning ishonchligini tasdiqlovchi yoki rad etuvchi hulosasini bank yillik hisobotini dastlabki tasdiqlash masalasi ko'riladigan Bank Kengashi majlisining o'tkazilishidan kamida 3 kun oldin taqdim etadi.</p>

<p>предварительном утверждении годового отчета банка.</p>	
<p>4.3. Внеплановая проверка (ревизия) финансово – хозяйственной деятельности Банка осуществляется по:</p> <ul style="list-style-type: none"> • решению Общего собрания акционеров; • решению Совета Банка; • требованию акционера (акционеров) банка, владеющего (владеющих в совокупности) не менее чем 5 процентами голосующих акций банка; • инициативе самой ревизионной комиссии. 	<p>4.3. Bank moliya-xo'jalik faoliyatini rejadan tashqari tekshirish (taftish) quyidagi hollarda amalga oshiriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra; • Bank Kengashi qaroriga ko'ra; • bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (birgalikda egalik qiluvchi aksiyadorlarning) talabiga ko'ra; • Taftish komissiyasining o'z tashabbusi bilan.
<p>4.4. Решение о внеплановой проверке (ревизии) принимается на Общем собрании акционеров простым большинством голосов акционеров - владельцев голосующих акций банка, принимающих участие в собрании. Ревизионная комиссия приступает к проверке (ревизии) после получения соответствующего протокола Общего собрания акционеров.</p>	<p>4.4. Rejadan tashqari tekshirish (taftish)ni o'tkazish to'g'risidagi qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan yig'ilishda ishtirok etayotgan bank ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Taftish komissiyasi tekshirishni (taftishni) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining tegishli bayonnomasini olganidan keyin boshlaydi.</p>
<p>4.5. Решение о внеплановой проверке (ревизии) принимается Советом Банка большинством голосов его членов присутствующих на заседании, в случае заочного голосования (опросным путем) всеми членами Совета Банка единогласно. Данное решение направляется на имя председателя ревизионной комиссии и подписывается всеми членами Совета Банка, голосовавшими за его принятие.</p>	<p>4.5. Rejadan tashqari tekshirish (taftish) to'g'risidagi qaror Bank Kengashi tomonidan majlisda ishtirok etayotgan Kengash a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan, sirtidan (so'rov asosida) ovoz berish holatida Bank Kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. Ushbu qaror uning qabul qilinishi uchun ovoz bergan barcha Kengash a'zolari tomonidan imzolangan holda taftish komissiyasining raisi nomiga yuboriladi.</p>
<p>4.6. Член ревизионной комиссии при выявлении нарушений направляет председателю ревизионной комиссии письменное описание выявленных нарушений, требующих решения ревизионной комиссии.</p> <p>В течение 3 рабочих дней после получения требования председатель ревизионной комиссии обязан созвать заседание ревизионной комиссии.</p> <p>При принятии ревизионной комиссией</p>	<p>4.6. Taftish komissiyasining a'zosi tartib buzilishlarini aniqlagan taqdirda taftish komissiyasining raisiga aniqlangan tartib buzilishining yozma tafsilotini komissiyaning tegishli qarorini qabul qilish uchun yuboradi.</p> <p>Taftish komissiyasining raisi talabnomani olganidan keyin 3 ish kuni ichida taftish komissiyasining majlisini chaqirishi lozim.</p> <p>Taftish komissiyasi tomonidan tekshirish</p>

<p>решения о проведении проверки (ревизии) председатель ревизионной комиссии обязан организовать проверку (ревизию) и приступить к ее проведению.</p>	<p>(taftish) o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, taftish komissiyasining raisi tekshirish (taftish) o'tkazilishini tashkil qilishi va uni o'tkazishni boshlashi shart.</p>
<p>4.7. Выдвижение требований о проведении внеплановой проверки (ревизии) акционерами банка:</p>	<p>4.7. Bank aksiyadorlari tomonidan rejadan tashqari tekshirish (taftish) o'tkazish talabini qo'yish:</p>
<p>4.7.1. Акционеры – инициаторы проверки (ревизии) направляют в ревизионную комиссию письменное требование, которое должно содержать:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ф.И.О. (наименование) акционеров; • сведения о принадлежащих им акциях (количество, категория, тип); • мотивированное обоснование данного требования. <p>Требование подписывается акционером или его доверенным лицом. Если требование подписывается доверенным лицом, то прилагается доверенность.</p> <p>В случае если инициатива исходит от акционеров — юридических лиц, подпись представителя юридического лица, действующего в соответствии с его уставом без доверенности, заверяется печатью данного юридического лица. Если требование подписано представителем юридического лица, действующим от его имени по доверенности, к требованию прилагается доверенность.</p>	<p>4.7.1 Tekshirish (taftish) o'tkazilishining tashabbuskorlari bo'lgan aksiyadorlar taftish komissiyasiga yozma talabnoma yo'llaydilar, unda quyidagi ma'lumotlar aks ettirilishi shart:</p> <ul style="list-style-type: none"> • aksiyadorlarning to'liq ismi (nomi); • ularga tegishli bo'lgan aksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar (miqdori, toifasi, turi); • ushbu talabning asoslangan dalillari. <p>Talabnoma aksiyador yoki uning ishonchli vakili tomonidan imzolaniadi. Agar talabnomani ishonchli vakil imzolasa, unga ishonchnoma ilova qilinadi.</p> <p>Agar tashabbus yuridik shaxslar bo'lgan aksiyadorlar tomonidan chiqqan bo'lsa, yuridik shaxsning uning ustaviga muvofiq ishonchnomasiz harakat qiluvchi vakilining imzosi mazkur yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlanadi. Agar talabnoma yuridik shaxsning uning nomidan ishonchnoma bo'yicha harakat qiluvchi vakili tomonidan imzolansa, talabnomaga ishonchnoma ilova qilinadi.</p>
<p>4.7.2. Требование инициаторов проведения проверки (ревизии) отправляется заказным письмом в адрес Банка на имя председателя ревизионной комиссии с уведомлением о вручении или сдается в канцелярию банка.</p> <p>Дата предъявления требования определяется по дате уведомления о его вручении или дате сдаче в канцелярию банка.</p>	<p>4.7.2. Tekshirish (taftish) o'tkazish tashabbuskorlarining talabnomasi Bank manziliga buyurtma xat tarzida Taftish komissiyasining raisi nomiga topshirilgani to'g'risida xabar berish sharti bilan yuboriladi, yoki Bank devonxonasiga topshiriladi.</p> <p>Talabnoma qo'yilgan sana uning topshirilgani to'g'risidagi xabarnoma sanasi yoki bank devonxonasiga topshirilgan sana bilan belgilanadi.</p>
<p>4.7.3. В течение 10 рабочих дней с даты предъявления требования ревизионная комиссия должна принять решение о проведении</p>	<p>4.7.3. Talabnoma qo'yilgandan keyin 10 ish kuni ichida taftish komissiyasi bankning moliya-xo'jalik faoliyatini rejadan tashqari tekshirish (taftish)</p>

<p>внеплановой проверки (ревизии) финансово-хозяйственной деятельности банка или дать мотивированный отказ от проведения ревизии.</p>	<p>o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi yoki taftish o'tkazilishini asoslangan tarzda rad etishi kerak.</p>
<p>4.7.4. Отказ от проверки (ревизии) может быть дан ревизионной комиссией в следующих случаях:</p> <ul style="list-style-type: none"> • акционеры, предъявившие требование, не являются владельцами необходимого для этого количества голосующих акций, дающих право голоса по всем вопросам компетенции общего собрания на дату предъявления требования; • инициаторами предъявления требования выступают лица, не зарегистрированные в реестре акционеров или не обладающие представительскими – полномочиями соответствующих акционеров; • в требовании не указан мотив проведения проверки (ревизии); • по фактам, являющимся мотивами проведения проверки (ревизии), проверка (ревизия) проведена и ревизионной комиссией утверждено заключение; • в требовании указаны неполные сведения; • требование не соответствует законодательству и нормативно – правовым актам Республики Узбекистан или уставу банка. 	<p>4.7.4 Tekshirish (taftish) o'tkazilishini taftish komissiyasi quyidagi hollarda rad etishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> • talabnomani qo'ygan aksiyadorlar talabnoma qo'yilgan sanada umumiy yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqini beradigan ovoz beruvchi aksiyalarining zarur miqdoriga egalik qilmaydilar; • talabnoma qo'yish tashabbuskorlari aksiyadorlar reestrda ro'yxatga olinmagan yoki tegishli aksiyadorlarning vakillik vakolatiga ega bo'lmagan shaxslardir; • talabnomada tekshirish (taftish) o'tkazilishining asoslari ko'rsatilmagan; • tekshirish (taftish) o'tkazish uchun asos qilib ko'rsatilgan holatlar yuzasidan avval tekshirish (taftish) o'tkazilgan va taftish komissiyasi tomonidan xulosa tasdiqlangan; • talabnomada to'liq bo'lmagan ma'lumotlar ko'rsatilgan; • talabnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va me'yoriy-huquqiy hujjatlariga yoki bank ustaviga mos kelmaydi.
<p>4.8. При проведении проверок (ревизий) члены ревизионной комиссии обязаны изучить все имеющиеся и полученные документы и материалы, относящиеся к предмету проверки.</p>	<p>4.8. Tekshirishlarni (taftishlarni) o'tkazish chog'ida taftish komissiyasining a'zolari tekshirish predmetiga taalluqli barcha mavjud va olingan hujjatlar hamda materiallarni o'rganib chiqishlari shart.</p>
<p>4.9. По итогам проверки финансово – хозяйственной деятельности Банка ревизионная комиссия Банка составляет заключение, в том числе исходя из рекомендации Кодекса корпоративного управления, в котором должны содержаться:</p> <ul style="list-style-type: none"> • оценка достоверности данных, 	<p>4.9. Bank moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari bo'yicha, shuningdek Korporativ boshqaruv kodeksining tavsiyalari asosida Bank taftish komissiyasi xulosa tuzadi, unda quyidagilar aks ettirilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • bank hisobotlarida va boshqa moliyaviy

<p>содержащихся в отчетах и иных финансовых документах банка;</p> <ul style="list-style-type: none"> • информация о фактах нарушения порядка ведения бухгалтерского учета и представления финансовой отчетности, а также законодательства при осуществлении финансово – хозяйственной деятельности. <p>Данное заключение заслушивается на годовом Общем собрании акционеров.</p>	<p>hujjatlarida aks ettirilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga berilgan baho;</p> <ul style="list-style-type: none"> • buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim qilish tartibining, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida qonunchilikning buzilishi holatlari to'g'risidagi ma'lumotlar. <p>Mazkur hulosa Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida eshittiriladi.</p>
<p>4.10. Инициаторы проверки (ревизии) финансово – хозяйственной деятельности Банка вправе в любой момент до принятия ревизионной комиссией решения о проведении проверки (ревизии) отозвать свое требование, письменно уведомив ревизионную комиссию.</p>	<p>4.10. Bank moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish) tashabbuskorlari taftish komissiyasi tekshirish (taftish) o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilguncha bo'lgan muddat ichida istalgan vaqtda o'z talabnomalarini taftish komissiyasini yozma ravishda xabardor etgan holda qaytarib olishga haqlidirlar.</p>
<p>4.11. Ревизионная комиссия ежеквартально выносит на заседание Совета Банка заключение о наличии сделок с аффилированными лицами или крупных сделок в Банке, а также соблюдении требований законодательства и внутренних документов банка к совершению таких сделок.</p>	<p>4.11. Taftish komissiyasi har chorakda Bankda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi to'g'risida, shuningdek ana shunday bitimlar tuzish bo'yicha qonunchilik va bankning ichki hujjatlari talablariga rioya etilishi to'g'risidagi xulosani Bank Kengashi muhokamasiga olib chiqadi.</p>
<p>5. ИЗБРАНИЕ И ДОСРОЧНОЕ ПРЕКРАЩЕНИЕ ПОЛНОМОЧИЙ ЧЛЕНОВ РЕВИЗИОННОЙ КОМИССИИ</p>	<p>5. TAFTISH KOMISSIYASI A'ZOLARINI SAYLASH VA VAKOLATLARINI MUDDATIDAN ILGARI TUGATISH</p>
<p>5.1. Порядок внесения предложений о выдвижении кандидатов в ревизионную комиссию Банка, рассмотрения и принятия решения Советом Банка по внесенным предложениям осуществляется в соответствии со статьями 63 и 65 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных банках и защите прав акционеров» и Уставом Банка.</p>	<p>5.1. Bank taftish komissiyasi a'zoliciga nomzodlarni ko'rsatish bo'yicha takliflar kiritish, kiritilgan takliflarni Bank Kengashi tomonidan ko'rib chiqish va ular bo'yicha qaror qabul qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik banklari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonunining 63- va 65-moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.</p>
<p>5.2. Предложение по выдвижению кандидатов в ревизионную комиссию вносится в письменной форме, путем направления заказного письма в адрес банка или сдается в канцелярию банка.</p> <p>Дата внесения предложения определяется по дате почтового отправления или по дате ее сдачи в канцелярию банка.</p>	<p>5.2. Taftish komissiyasi a'zoliciga nomzodlarni ko'rsatish bo'yicha taklif Bank manziliga buyurtma xatini yuborish orqali yozma ravishda kiritiladi yoki bank devonxonasiga topshiriladi.</p> <p>Taklif kiritilgan sana pochta jo'natmasi sanasi yoki uni bank devonxonasiga taqdim etilgan sana bilan belgilanadi.</p>

<p>Предложение подписывается акционером или его доверенным лицом, если предложение подписывается доверенным лицом, то прилагается доверенность.</p> <p>Если инициатива исходит от акционера – юридического лица, подпись представителя юридического лица, действующего в соответствии с его уставом без доверенности, заверяется печатью данного юридического лица. Если требование подписано представителем юридического лица, действующим от его имени по доверенности, к требованию прилагается доверенность.</p>	<p>Taklif aksiyador yoki uning ishonchli vakili tomonidan imzolanadi, agar taklif ishonchli vakil tomonidan imzolansa, unga ishonchnoma ilova qilinadi.</p> <p>Agar tashabbus yuridik shaxs bo'lgan aksiyador tomonidan chiqqan bo'lsa, yuridik shaxsning ustaviga muvofiq yuridik shaxsning ishonchnomasiz harakat qiluvchi vakilining imzosi mazkur yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlanadi. Agar talabnoma yuridik shaxsning ishonchnoma asosida harakat qiluvchi vakili tomonidan imzolansa, talabnomaga ishonchnoma ilova qilinadi</p>
<p>5.3. Ревизионная комиссия избирается в количестве 3 человек общим собранием акционеров сроком на один год, большинством голосов акционеров — владельцев голосующих акций банка (простым большинством), принимающих участие в собрании. Члены ревизионной комиссии банка не могут одновременно являться членами Совета Банка, а также работать по трудовому договору (контракту) в этом же Банке. Одно и то же лицо не может избираться в состав ревизионной комиссии более трех раз подряд.</p>	<p>5.3. Taftish komissiyasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan 3 kishidan iborat tarkibda bir yil muddatga, yig'ilishda qatnashadigan Bank ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlarining ko'pchilik (oddiy ko'pchilik) ovozi bilan saylanadi. Bank taftish komissiyasi a'zolari bir vaqtning o'zida Bank Kengashi a'zosi bo'lishi, shuningdek xuddi shu Bankda mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida ishlashi mumkin emas. Ayni bir shaxs taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.</p>
<p>5.4. Члены Ревизионной комиссии Банка должны соответствовать следующим квалификационным требованиям: иметь высшее экономическое или финансовое образование и опыт работы в финансово-хозяйственной сфере не менее 5 лет.</p>	<p>5.4. Bank Taftish komissiyasi a'zolari quyidagi malaka talablariga javob berishi kerak: iqtisodiyot yoki moliya bo'yicha oliy ma'lumotga va moliya-xo'jalik sohasida kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo'lishi kerak.</p>
<p>5.5. Ревизионная комиссия избирает председателя и секретаря из своего состава. Председатель и секретарь ревизионной комиссии избираются на заседании ревизионной комиссии большинством голосов от общего числа избранных членом комиссии.</p> <p>Ревизионная комиссия вправе в любое время переизбрать своего председателя и секретаря большинством голосов от общего числа избранных членом комиссии, за исключением голосов выбывших членом ревизионной комиссии.</p>	<p>5.5 Taftish komissiyasi o'z tarkibidan rais va kotibni saylaydi. Taftish komissiyasining raisi va kotibi komissiyaga saylanganlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan taftish komissiyasining majlisida saylanadi.</p> <p>Taftish komissiyasi o'z raisi va kotibini komissiyaga saylanganlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan, taftish komissiyasidan chiqib ketqanlarning ovozi istisno etgan holda, istalgan vaqtda qayta saylashi mumkin.</p>

<p>5.6. Член ревизионной комиссии вправе по своей инициативе выйти из ее состава в любое время, письменно известив об этом ревизионную комиссию и совет банка за один месяц до прекращения своей работы в ревизионной комиссии. В этом случае общее собрание акционеров на ближайшем собрании осуществляет замену члена ревизионной комиссии.</p>	<p>5.6. Taftish komissiyasi a'zosi komissiyasida o'z ishi tugashidan bir oy oldin taftish komissiyasini va Bank Kengashini yozma ravishda ogohlantirgan holda istalgan vaqtda o'z tashabbusi bilan uning tarkibidan chiqishga haqli. Bu holda, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'zining eng yaqin majlisida taftish komissiyasi a'zosini almashtiradi.</p>
<p>5.7. В случае вхождения члена ревизионной комиссии в состав ликвидационной комиссии, избрания (назначения) в совет банка или правление банка, либо начала работы по трудовому договору (контракту) в обществе, данное лицо обязано прекратить осуществление своей деятельности в качестве члена ревизионной комиссии. При этом, общее собрание акционеров на ближайшем собрании осуществляет замену члена Ревизионной комиссии.</p>	<p>5.7. Taftish komissiyasi a'zosi tugatish komissiyasi tarkibiga kiritilgan, bank kengashiga yoki bank boshqaruviga saylangan (tayinlangan) yoki kompaniyada mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida mehnat qila boshlagan taqdirda, u taftish komissiyasi a'zosi sifatida o'z faoliyatini to'xtatishi zarur. Bu holda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'zining eng yaqin majlisida Taftish komissiyasining a'zosini almashtiradi.</p>
<p>5.8. Полномочия отдельных членов или всего состава ревизионной комиссии могут быть прекращены досрочно решением Общего собрания акционеров, принимаемым большинством голосов акционеров — владельцев голосующих акций Банка, принимающих участие в собрании, по следующим основаниям:</p> <ul style="list-style-type: none">• непринятие участия в работе ревизионной комиссии более 3-х раз по неубажительным причинам;• при проведении проверок члены (член) ревизионной комиссии ненадлежащим образом изучили все документы и материалы, относящиеся к предмету проверки, что повлекло за собой неверные заключения ревизионной комиссии банка;• невыполнение отдельными членами ревизионной комиссии или ревизионной комиссией в целом п. 2.3 настоящего положения;• совершения иных действий (бездействия) членами ревизионной комиссии, повлекших неблагоприятные для банка последствия.	<p>5.8. Taftish komissiyasi ayrim a'zolarining yoki butun tarkibining vakolatlari Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yig'ilishida qatnashayotgan Bank ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlarning ko'pchlik ovozi bilan quyidagi sabablarga ko'ra muddatidan oldin tugatilishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none">• taftish komissiyasining ishida 3 martadan ortiq uzrli sabablarsiz qatnashmaslik;• tekshirishlarni o'tkazish paytida taftish komissiyasi a'zolari (a'zosi) tomonidan tekshirish predmetiga aloqador barcha hujjatlar va materiallarning lozim darajada o'rganilmaganligi va buning natijasida bank taftish komissiyasi tomonidan noto'g'ri xulosa chiqarilganligi;• taftish komissiyasining ayrim a'zolari yoki butun taftish komissiyasi tomonidan mazkur nizomning 2.3-bandi bajarmasligi;• taftish komissiyasining a'zolari harakatlari (harakatsizligi) bank uchun nomaqbul oqibatlarni keltirib chiqarishi.

<p>5.9. В случае, когда число членов ревизионной комиссии становится менее половины числа, предусмотренного уставом банка, совет банка обязан созвать внеочередное Общее собрание акционеров для избрания нового состава ревизионной комиссии.</p> <p>В случае досрочного прекращения полномочий ревизионной комиссии полномочия вновь избранных членов ревизионной комиссии действуют до момента избрания ревизионной комиссии следующим годовым Общим собранием акционеров.</p>	<p>5.9. Taftish komissiyasi a'zolarining soni bank ustavida nazarda tutilgan miqdorning yarmidan kamayib qolsa, bank kengashi taftish komissiyasining yangi tarkibini saylash uchun Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi zarur.</p> <p>Taftish komissiyasi vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, taftish komissiyasining yangi saylangan a'zolarining vakolatlari Aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishida taftish komissiyasi saylangunga qadar amal qiladi.</p>
<p>5.10. Если внеочередное общее собрание досрочно прекратило полномочия всего состава ревизионной комиссии в целом или ее отдельных членов, в результате чего их число стало менее половины от избранного состава, то в течение не более трех рабочих дней с момента принятия данного решения, совет банка обязан принять решение о созыве внеочередного общего собрания с пунктом повестки дня об избрании нового состава ревизионной комиссии.</p> <p>Вносить предложения по кандидатам в состав ревизионной комиссии могут акционеры, имеющие в соответствии с законодательством и уставом банка право на выдвижение кандидатов в органы управления и контроля банка.</p>	<p>5.10. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi taftish komissiyasi butun tarkibi yoki uning ayrim a'zolari vakolatlarini muddatidan oldin tugatgan taqdirda va natijada ularning soni saylangan tarkibning yarmidan kamini tashkil etgan bo'lsa, bunday qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran uch ish kunidan oshmagan muddatda bank kengashi kun tartibida taftish komissiyasining yangi tarkibini saylash bandi bo'lgan navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida qaror qabul qiladi.</p> <p>Taftish komissiyasi tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflarni qonun hujjatlariga va bank ustaviga ko'ra bankning boshqaruv va nazorat organlariga nomzodlarni taklif qilish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar kiritishlari mumkin.</p>
<p>6. ЗАСЕДАНИЯ РЕВИЗИОННОЙ КОМИССИИ</p>	<p>6. TAFTISH KOMISSIYASINING MAJLISLARI</p>
<p>6.1. Ревизионная комиссия решает все вопросы на своих заседаниях. Заседания ревизионной комиссии проводятся по утвержденному плану, а также перед началом проверки или ревизии и по их результатам. Член ревизионной комиссии может требовать созыва экстренного заседания комиссии в случае выявления нарушений, требующих безотлагательного решения ревизионной комиссии.</p>	<p>6.1 Taftish komissiyasi barcha masalalarni o'z majlislarida hal qiladi. Taftish komissiyasi majlislari tasdiqlangan reja asosida, shuningdek, tekshirish yoki taftishni boshlashdan oldin hamda ularning natijalari yuzasidan o'tkaziladi. Taftish komissiyasining a'zosi taftish komissiyasi tomonidan kechiktirmasdan hal etilishi zarur bo'lgan tartib busilishlari aniqlangan holda komissiyaning shoshilinch majlisli chaqirilishini talab qilishi mumkin.</p>
<p>6.2. Заседание ревизионной комиссии считается</p>	<p>6.2 Taftish komissiyasining majlisi, agar unda</p>

<p>правомочным, если на нем присутствуют не менее двух третей ее членов. Все заседания ревизионной комиссии проводятся в очной форме.</p>	<p>a'zolarning kamida uchdan ikki qismi qatnashayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi. Taftish komissiyasining barcha majlislari a'zolarning ochiq qatnashuvi shaklida o'tkaziladi.</p>
<p>6.3. Каждый член ревизионной комиссии обладает одним голосом. Акты и заключения ревизионной комиссии учреждаются простым большинством голосов присутствующих на заседании. При равенстве голосов решающим является голос председателя ревизионной комиссии.</p> <p>Члены ревизионной комиссии в случае своего несогласия с решением комиссии вправе зафиксировать в протоколе заседания особое мнение и довести его до сведения, совета банка и общего собрания акционеров.</p>	<p>6.3 Taftish komissiyasining har bir a'zosi bitta ovozga ega. Taftish komissiyasining dalolatnomalari va xulosalari majlisda qatnashuvchilarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan tasdiqlanadi. Ovozlar soni teng bo'lib qolsa, taftish komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi.</p> <p>Taftish komissiyasi a'zolari komissiya qaroridan norozi bo'lgan holatda, ular majlis bayonnomasida o'zlarining alohida fikrlarini qayd etib qo'yish va uni bank kengashi hamda aksiyadorlar umumiy yig'ilishi e'tiboriga havola etish huquqiga ega.</p>
<p>6.4. Председатель ревизионной комиссии:</p> <ul style="list-style-type: none">• созывает и проводит заседания;• организует текущую работу ревизионной комиссии;• представляет ее на заседаниях совета банка, общего собрания акционеров;• подписывает документы, исходящие от ее имени.	<p>6.4. Taftish komissiyasining raisi:</p> <ul style="list-style-type: none">• majlislarni chaqiradi va o'tkazadi;• taftish komissiyasining joriy ishini tashkil qiladi;• bank kengashi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi majlislarida komissiyani ifoda etadi;• uning nomidan chiqarilayotgan hujjatlarga imzo chekadi.
<p>6.5. В случае отсутствия председателя его функции осуществляет один из членов ревизионной комиссии по решению большинства присутствующих на заседании членов ревизионной комиссии.</p>	<p>6.5 Rais bo'lmagan holatlarda uning vazifasini majlisda qatnashuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan qarori asosida taftish komissiyasi a'zolaridan biri bajaradi.</p>
<p>6.6. Секретарь ревизионной комиссии:</p> <ul style="list-style-type: none">• организует ведение протоколов ее заседаний;• доводит до адресатов акты и заключения ревизионной комиссии.	<p>6.6. Taftish komissiyasi kotibi:</p> <ul style="list-style-type: none">• uning majlislari bayonnomalari yuritilishini tashkil qiladi;• taftish komissiyasining dalolatnomalari va xulosalarini oluvchilarga etkazadi.
<p>6.7. Настоящее Положение составлено на двух языках, английском и русском. В случае расхождений между двумя версиями английский язык имеет преваляющую силу.</p>	<p>6.7. Ushbu Nizom ikki tilda, ingliz va rus tillarida tuzilgan. Ikkala versiya o'rtasida farq bo'lsa, ingliz tili ustunlik qiladi.</p>